

"Avtomobil yo'llaridan foydalanish va texnik xolatini taxlil qilish markazi" unitar korxonasi

Salayev Faxriddin Farxodovich

Qabul kunlari: Dushanba-Payshanba soat 8:00-17:00

Toshkent sh., 100052, Mirzo Ulug'bek tumani, Katta Darxon 2-tor ko'cha, 5-uy

(0 371) 286-19-02

(0 371) 286-19-02

ekspertiza@uzavtoyul.uz

website:www.ekspertiza.uz

"Yo'l loyiha ekspertiza" unitar korxonasining funksional vazifalari

- mablag'lardan foydalanish yo'nalishlarini asoslash maqsadida yo'l ishlarining turlari va tarkibi, avtomobil yo'llari qurish, qayta qurish, ta'mirlash va saqlash ishlari ob'ektlarini texnik iqtisodiy asoslash va loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish;
- o'rnatilgan tartibda investitsiya loyihalarining TIA (TIX) va ishchi loyihalarni, shuningdek avtomobil yo'llarini va ulardagi muhandislik inshootlarini loyihalash, qurish, qayta qurish va ta'mirlash loyihalarini ekspertizadan o'tkazish va ekspertiza xulosalarini berish;
- avtomobil yo'llari sohasida yagona ekspertiza siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish;
- tuman rejalashtirish loyihalari, shaharlarning bosh rejalari, rejalashtirish va qurilish, hamda boshqa rejalashtirish hujjatlarining avtomobil yo'llari, ko'priklar, yo'l o'tkazgichlar va yo'l inshootlariga oid qismini qurilish me'yorlari va qoidalariga mosligini ekspertizadan o'tkazish;
- avtomobil yo'llari tarmog'ini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan kontseptsiya va dasturlarni ekspertizadan o'tkazish;
- avtomobil yo'llari sohasida bajariladigan ilmiy-tadqiqot, tajriba-sinov, loyihalash, muhandislik-qidiruv, geodeziya ishlarini ekspertizadan o'tkazish;
- avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish, qayta qurish, ta'mirlash va saqlash ishlarini ekspertizadan o'tkazishga oid ilmiy asoslangan texnik me'yorlarni ishlab chiqishda qatnashish;
- aerodromlar qurilishi va qayta qurish ishlari loyihalarini ekspertizadan o'tkazish;

- avtomobil yo'llari sohasida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash ishlarini amalga oshirishda qatnashish;
- avtomobil yo'llarini qurish, ta'mirlash va saqlash masalalarida ekspertiza faoliyati bo'yicha xalqaro hamkorlikni kengaytirishda qatnashish;
- avtomobil yo'llarida muhandislik inshootlarni, ya'ni ko'prik, yo'l o'tkazgich (puteprovod), tunnel, har xildagi suv o'tkazish va boshqa inshootlarni holatini tahlil qilish, takliflar tayyorlash, hamda muhandislik inshootlar pasportlarini tuzish;
- avtomobil yo'llari va muhandislik inshootlarida favqulotda sodir bo'lgan holatlarni oldini olish (sel, qor qo'chishi, yer ko'chishlari) va bartaraf etish bo'yicha loyiha hujjatlarini tayyorlash;
- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llardan o'ta og'ir hamda me'yorlardan oshgan hajm va o'lchamdagi yuklarga ega bo'lgan avtotransport vositalarini harakatlanishini respublika bo'yicha o'tkazish va ruxsatnomalarni rasmiylashtirish;
- avtomobil yo'llariga oid statistik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish, prognozlashtirish, yo'l infratuzilmasini uzoq muddatga rejalashtirishni muvofiqlashtirish;
- favqulotda holat yuz berganda avtomobil yo'llari va ko'prik inshootlarini tiklash bo'yicha dasturlarni tuzish;
- o'rta muddatli va uzoq muddatli dasturlarni hamda respublika avtomobil yo'llari tarmog'ini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha alohida investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;
- o'rnatilgan tartibda Muassisning xorijdagi faoliyatini yuritishda ishtirok etish, texnik-maslahat xizmat ko'rsatish va faoliyatini muvofiqlashtirishda ishtirok etish;
- qurilishda muhandislik faoliyati;
- avtomobil yo'llari va undagi inshootlarni hisobga olish, baholash va monitoring uchun ularni sohaviy kadastrlarini yaratish va olib borish;
- yo'l-transport kommunikatsiyalarini o'ta muhim ob'ektlarini pasportlarini tayyorlash;
- xalqaro talablar darajasidagi avtomobil yo'llari va barcha inshootlar bo'yicha hamda transport sohalari uchun keng qamrovli mutaxassislarni qayta tayyorlash;
- mutaxassislar tayyorlash va yo'l sohasining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish maqsadida chet el firma va kompaniyalarini o'rnatilgan tartibda jalb qilish;
- yo'l qurilishida ishlatiladigan yangi materiallar va texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha tajriba loyihalarini amalga oshirish;
- avtomobil yo'llari sohasiga oid barcha turdagi izlanishlar va ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish;
- amaldagi qonunchilik asosida yo'l sohasining ta'qiqlanmagan konsalting, agentlik, vakolatlik, konsignatsion, dilerlik kabi ishlarni bajarish hamda marketing, servis, transport, reklama va boshqa faoliyatlarini amalga oshirish;
- quriladigan ob'ektlarda texnik nazoratni amalga oshirish;
- yo'l sohasidagi mutaxassislar malakasini oshirish, tajriba almashish ishlarini

- amalga oshirish;
- xorijiy davlatlar mutaxassislarini (amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda) tajriba almashishga, ma'ruzalar o'qishga va vaqtincha ishlashga taklif etish;
 - o'quv bazasini tashkil qilish bilan mutaxassislarni o'qitish va ularning malakasini oshirish;
 - maslahat xizmatlarini ko'rsatish;
 - xorijlik mutaxassislarni o'rnatilgan tartibda taklif qilgan holda ilmiy-nazariy-amaliy konferentsiyalar, seminarlar tashkil qilish va o'tkazish;
 - aholiga maishiy xizmatlarning barcha turlarini ko'rsatish;
 - mehmonxona xizmatlari;
 - ilmiy-amaliy izlanishlar, ilmiy ishlar va boshqa ishlanmalarni, yangi texnologiyalarni, "nou-xau"larni yaratish, sotib olish va sotish, hamda ularni ishlab chiqarishga tatbiq etish;
 - xayriya va homiylik faoliyati (Muassis bilan kelishilgan holda);
 - belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyat;
 - avtomobil yo'llarini ta'mirlash va saqlash uchun mablag'lar sarfini muntazam tahlilini olib borish;
 - avtomobil yo'llari va mintaqaviy yo'llarni qurish, ta'mirlash ishlariga loyiha – xarajat hujjatlarini tayyorlash;
 - ko'priklar qurilishi va ta'mirlash ishlariga loyiha – xarajat xujjatlarini tayyorlash;
 - shag'al, qum, asfalt, ohak, temir-beton mahsulotlari va boshqa qurilish hamda yo'l qurilishi mahsulotlarini ishlab chiqarish;
 - neft mahsulotlarini qayta ishlash, ulgurji va chakana savdoni o'rnatilgan tartibda tashkil qilish va uyushtirish;
 - tipografiya, poligrafiya xizmatlarini joriy etish, texnik yo'riqnomalar va jurnallar chop etish;
 - Markaziy Osiyo respublikalari infratuzilmalarining turli sektorlarida konsalting xizmatlarini amalga oshirish, shu jumladan: avtomobil yo'llari injiniringi, qurilish injiniringi, aeroportlar injiniringi, oqar suvlar injiniringi, temir yo'llar injiniringi, shahar, milliy va xalqaro transportni rejalashtirish, loyihalashtirish va qurish ishlarida ishtirok etish;
 - yo'l qurilish texnikalarini, avtomashinalarini yig'ish va sotish, hamda ta'mirlash;
 - yo'l qurilish texnikalari uchun mutaxassislarni tayyorlash va o'qitish, qayta tayyorlash;
 - ikkilamchi xom-ashyoni qayta ishlash;
 - qurilish mahsulotlari va neft mahsulotlari chiqindilaridan avtomobil yo'llarini qurishda foydalanish;
 - iqtidorli yoshlarga, qobiliyatli kishilarga, san'atkor va sportchilarga homiylik qilish (Muassis bilan kelishilgan holda);
 - yordamchi xo'jaliklarni rivojlantirish;
 - foyda olish maqsadida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi doirasida boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanish.

[nizomni yuklab olish \(pdf, 284 kb\)](#)